

## FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLAR IJODIDA MUSIQIY FOLKLOR NAMUNALARINING SHAKLLANISHI

*Abdumurodov Ro'ziboy Ismoil o'g'li*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Magistratura bo'limi Musiqa ta'limi va san'at*

*mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada folklore musiqasi namunalari, ularning uzoq o'tmishga borib taqaluvchi tarixi hamda etnografik ansambllar tarkibida musiqiy folklorlarning shakllanishi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Etnografik namunalar, folklor ashullar, surxon folklorlari, havaskor jamoalar, milliy chjolg'u asboblar, milliy kuylar,

O'tgan asrning 70 - yillardan shahar, tuman va qishloq madaniyat uylarida folklor - etnografik ansambllar faoliyat ko'rsata boshladi. 1980 yillardan folklor - etnografik ansambllari, baxshi- shoirlar ko'rik-tanlovlarining o'tkazilishi o'zbek xalq musiqasi ijodining targ'iboti, tiklanishi, yangi sharoitda rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik yillarida o'zbek an'anaviy musiqasi san'ati rivojiga e'tibor yanada kuchaydi. Xususan, shu davrda oilaviy hamda folklor-etnografik ansambllar, to'y marosim qo'shiqlari, katta ashula, baxshi-shoirlar, maqom ijrochiligi bo'yicha ko'rik-tanlovlar bilan birga 1991 yildan "Alla", 2003 yildan "Boysun bahori" va boshqa yangi tashkil etilgan respublika va xalqaro musiqasi festival va tanlovlari o'tkazildi. Ayni paytda an'anaviy musiqasi ijrochiligini o'rganish barcha musiqasi va san'at bilim yurtlarida hamda ko'pgina bolalar musiqasi maktablarida joriy etildi.

Surxon musiqasi folklori aholining ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog'liq holda asrlar davomida shakllandi. Shu bilan birga Surxon musiqasi folklori ma'lum geografik va etnik mintaqalarga mos holda mahalliy tafovutlarga ham ega. Surxon xalq folklor musiqasi ijrochiligi ijodi, hususan, ijro san'ati uchun xos bo'lgan tafovutlar o'zbeklar - ularning ko'pchiligini qo'ng'irot, qatag'on, barlos, juz, qipchoq va boshqa urug'lar tashkil etadi va tojiklarning o'zaro lahjaviy ta'sirlari bilan bog'liq.

### **Folklor-etnografik ansambli - havaskor ijodiy jamoa.**

Xalq ijodini qo'shiq, raqs, o'yin, og'zaki drama kabi shakllarini mahalliy - milliy urf-odat va marosimlarga bog'lab sahnaviy talqinini namoyish qiladi. O'zbekistonda Ayollar an'anaviy ansambli, masxarabozlik, baxshi-shoirlar, xalq sozandalari va boshqa ijodi negizida 1970 yillarda madaniyat uylari qoshida tashkil topgan va ularning chiqishlari esa ko'pincha ma'lum xalq marosimi yoki bayram

jarayonini ifodalaydi. Ularning repertuaridan "Beshik" to'yi, "Sunnat to'yi", "Mu-chal to'yi", "Nikoh" tuyllari, o'rin olgan.

1980 yillardan boshlab Folklor-etnografik ansambllarining tuman, viloyat va respublika ko'rik-tanlovlari, 2002 yildan Boysunda YuNESKO dasturi asosida "Boysun bahori" ochiq folklor festivali o'tkazila boshlandi. Shu davrda Marg'ilondagi "Chodir jamol", Urgutdagi "Beshqarsak", Chiroqchidagi "Chiroqchi chiroqlari", Qarshidagi "Momogul", Bektemirdagi "Gavhar", Forishdagi "Gap-gashtak", Boysundagi "Boysun", va "Shalola", Xivadagi "Orazibon", Sariosiyodagi "Anor", Bulung'urdagi "Chavqi", Vobkentdagi "Mardona" va boshqa Folklor-etnografik ansambllari mashhur bolgan. Ular xalq sayillari, milliy bayram va boshqa tadbirlarda faol qatnashganlar. Ko'plari Amerika, Yevropa, Osiyo mamlakatlarida o'tkazilgan tanlov va festivallarda laureat unvoniga sazovor bo'lgan.

1980 - 1990 yillardan bolalar folklore-etnografik ansambllari ham faoliyat ko'rsatib boshladilar. Ulardan Surxon vohasidan "Quralay", "Gul-guncha", Sirdaryo viloyatidan "Dilrabo" bolalar folklore-etnografik ansambllari mashhur bolgan.

Surxon vohasining zamonaviy to'y qo'shiqlari turkumi rang-barang va xilma-xildir: "Beshik-to'y", "Sunnat to'y", "Muchal to'y", "Nikoh to'y". Ularda musiqa, o'yin, raqslar, tomoshalar va xalq o'yinlari - "Ko'pkari-uloq", "Kurash-chavki", "Piyoda uloq" birlashib, uyg'unlashib ketgan.

Binobarin, shuni ta'kidlash joizki, to'y-hashamlar musiqasiga asos bo'lgan ko'pgina qo'shiqlar ishqiy, o'ynoqi qo'shiqlarga singib ketgan. Ammo shunga qaramay, "Yor-yor", "Xazor ali" yoki "Kelin salom", "Al-muborak", "Kelin va kuyov qutlovi", "Kuyov sinov" va boshqa marosim qo'shiqlari ham ijro etiladi.

Surxondaryo an'anaviy cholg'u ijrochiligida barcha cholg'u guruhlari torli, puflama va zarbli cholg'ular ishtirok etadi. Tiralib chalinadigan torli cholg'u sozlari ham boy va rang-barangdir:

Do'mbira, asosan, tut, yong'oq, o'rik, nok, yog'ochlaridan turli kattalikda yasaladi. Dutor, kalta dator, chiltor, tilchali-zarbli cholg'u-temir chanqovuz, ilgari uning yog'och va suyakdan ishlangan turlari ham bo'lgan, eng keng tarqalgan. Puflab chalinadigan musiqa asboblariga surnay, cho'pon nayi - ko'ndalang, yog'ochdan yasalgan, g'ajir yoki suyak nay - ko'ndalang, suyakdan yasalgan, sibizga - ko'ndalang, qamishdan yasalgan, ushbullok-nay ushbullok - ko'ndalang, yoki dumaloq - chumchuqsimon qushga o'xshagan, loydan yasalganlari kiradi. Zarbli cholg'ular orasida doira yoki dal eng ommabopi hisoblanadi. Bu musiqa asboblari tog'li joylarda, ko'pincha, Sariosiyo, Denov, Uzun va Boysun shaharlarining sozgar ustalari tomonidan yasaladi. Ular Surxon cholg'u ijrochiligi an'analari davomchilari deyishimiz mumkin.

Surxon folklor ijrochiligi xalq tarixi, hayoti va turmushi, orzulari, dunyoqarashi va psixologiyasining timsoli sifatida hozirgi kunda ham Boysun tumanidagi "Boysun",

“Quralay”, Sho‘rchi tumanidagi “Bulbuligo‘yo”, Qiziriq tumanidagi “Qo‘ng‘iro‘t”, Sariosiyo tumanidagi “Zevari” va “Dashnobod anori”, Oltinsoy tumanidagi “Sharshara”, Termiz davlat universiteta qoshidagi “Jayxun” folklor-etnografik xalq ansambllari, Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Mahliyo” bolalar folklor ansambllari tufayli yashashda davom etmoqda. Ular milliy an‘analar, musiqiy-she‘riy folklori saqlab qolish va targ‘ib qilishda qator ishlar olib bormoqdalar.

Surxondaryo qadimiy urf-odatlar, an‘analar o‘ziga xos shaklda mukammal saqlangan va saqlanayotgan hududlardan biri bo‘lib, uni yoritishda qadimiy an‘analarimizni kelajak avlodlarga munosib tarzda qoldirayotgan “Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli o‘ziga hos uslubga ega bo‘lgan folklor maktablardan biridir. Ansambль bobolarimiz, momolarimiz qalb-qo‘rini berib kuylagan qo‘shiqlarni nafaqat ijro etib, balki unga hozirgi zamon ruhini ham qo‘shib ijod qilib kelmoqda. Jamoa ishtirokchilari ijro davomida o‘tkazilish tartiblari rasm-rusumlarini sahnalashtirib, kuy, qo‘shiq va raqslarni mavsumiy marosimlarga mos ravishda sayqal berib, ijro etmoqdalar. Voha ansambllarining bugungi kundagi ijodiy faoliyati, moliyaviy ahvoli, repertuari va ishtirokchilarining madaniy salohiyati to‘g‘risida deyarli maqtov so‘zlarni ishlatib bo‘lmaydi. 2013 yilda madaniyat uylari Madaniyat markazlariga aylantirildi, vazifalari ko‘lami kengaytirildi. Shu nuqtai nazardan ko‘p yillik tajriba, yuksak malakaga ega soha mutaxassislarini ansambllarga jalb etishni yo‘lga qo‘yish lozim bo‘lib hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Radjabova, G. M. The educational value of oral folk art for preschoolers. European research, (1), 75.
2. Rajabova, M. G., Makkaeva, R. S. A., & Mahluff, A. (2021). Strategic framework for sustainable enterprise development. In Sustainable Development of Modern Digital Economy: Perspectives from Russian Experiences (pp. 35-43). Cham: Springer International Publishing.
3. Rajabova, M. (2021). O‘ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).
4. Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. Вестник Казахского национального медицинского университета, (2- 1), 628-629.
5. Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. Scientific Impulse, 1(4), 288-291.

6. Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. *Scientific Impulse*, 1(4), 292- 296.
7. Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
8. Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 2
9. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*.
10. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. *Analytical Journal of Education and Development*, 1(06).
11. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 67-71.
12. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. *Экономика и социум*, (4-2 (95)), 211-214.
13. Xo'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rni. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*.
14. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
15. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
16. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
17. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563- 566.
18. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
19. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.

20. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 563- 566.
21. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923
22. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2(4).
23. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(3), 127-130.
24. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 329-331.
25. ED Uktamovna. (2023). FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 58-62
26. HN Pardayevna. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 19 (8), 63-66.
27. CS Nasriddin o'g'li (2023). CONTENT OF MUSIC CULTURE LESSONS AND ELEMENTS ORGANIZING THE MUSIC EDUCATION SYSTEM. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 18 (8), 72-77